



## AYRIM XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA QARSHI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHLTLARI

**Ubaydullayev Shoxruxbek Ortig'ali o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri  
shohrukhbeku179@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10069160>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> October 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> October 2023

Online: 31<sup>th</sup> October 2023

### KEY WORDS

*Tadbirkorlik, faoliyat, qonunchilik, to'sqinlik qilish, rivojlangan, davlatlar, tajriba, jinoiy qilmishlar, jinoyat, huquqiy tavsifi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligida tadbirkorlik faoliyatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikning ayrim jihatlari o'z masalalar bayon etilgan.*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlarini joriy etish va uni takomillashtirishda tadbirkorlik faoliyatining nechog'li taraqqiy etganligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi hamda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy bazasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Chunki, jamiyatda tadbirkorlik shaklidagi faoliyatning shakllanishi shaxsiy ijodiy potensialni ro'yobga chiqarish imkoniyatini tug'diradi, raqobat maydonida shaxsning xilma-xil shakllardagi mulkni rivojlantirishga bo'lgan tashabbuskor, innovatsion yondashuvini uyg'otadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish nuqtai nazaridan bu boradagi ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonun normalarini o'rganish muhim ahamiyatga egaligi, xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida tadqiq etilayotgan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalar tuzilishi turlichadir.

MDHga a'zo mamlakatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston, Gruziya, Belarus, Ozarbayjon Respublikalari, shuningdek XXR, Germaniya, Ispaniya, Bolgariya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligi tahlili ularda ham tadqiq etilayotgan qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda tadbirkorlik faoliyatini jinoyat-huquqiy jihatdan muhofaza qilish borasidagi qonunchilikni tahlil etish quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, bugungi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar bilan salmoqli savdo-iqtisodiy, moliyaviy aloqalar o'rnatilgan;

ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini jinoyat-huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kafolatlash investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi;



uchinchidan, rivojlangan xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy integratsiyaga kirishish boshqa sohalarga oid qonunchilik bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyatiga oid qonunchilikni ham unifikatsiyalashtirishni taqozo etadi.

Xorijiy davlatlarda tadbirkorlik faoliyati nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy fenomen, balki jinoyat-huquqiy himoya ob'ekti sifatida ham tadqiq etiladi<sup>1</sup>.

Shu sababdan ham xorijiy davlatlar qonunchiligida tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikning ayrim jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, aksariyat xorijiy davlat jinoyat qonunlari tadbirkorlik faoliyatini jinoyat-huquqiy jihatdan tartibga soladi. Ushbu holat davlatning iqtisodiy xavfsizligini, shuningdek xususiy sektorning huquq va manfaatlarini himoya qilish orqali tadbirkorlik faoliyati erkinligini ta'minlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi.

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida belgilangan tadbirkorlik faoliyatiga qarshi jinoyatlar o'z xususiyatiga ko'ra quyidagi ikki guruhga bo'linishini ko'rish mumkin:

birinchi, qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish (tadbirkorlik faoliyati erkinligi);

ikkinchi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan talablarini buzgan holda g'ayriqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish.

Xorijiy davlatlar jinoyat huquqida tadbirkorlik faoliyatini jinoyat-huquqiy muhofaza qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud iqtisodiy tizim hamda davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish modeli bilan aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini milliy jinoyat-huquqiy muhofaza qilish metodlari MDH mamlakatlaridagi holat bilan ancha yaqin. Ushbu davlatlarda ham qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ushbu holatni MDH Parlamentlararo Assambleyasining yettinchi yalpi majlisida qabul qilingan Namunaviy JK (1996 y. 17 fevraldagi 7-5-sonli qarorlar)da aks etgan g'oyalarning qonun chiqaruvchilarga ta'siri sifatida izohlash mumkin.

Sobiq ittifoq tarkibidagi aksariyat davlatlarning jinoyat qonunlarida qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik (Ozarbayjon JK 190-m.<sup>2</sup>, Armaniston JK 187-m.<sup>3</sup>, Belarus JK 232-m.<sup>4</sup>, Gruziya JK 190-m.<sup>5</sup>, Qirg'iziston JK 178-m.<sup>6</sup>, Tojikiston JK 258-m.<sup>7</sup>, Turkmaniston JK 238-m.<sup>8</sup>) iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'limida belgilangan.

<sup>1</sup> Аванесян Г.К. Уголовно-правовая охрана предпринимательской деятельности. Автореферат на соискателя ученой степени кандидата юридических наук. –Ульяновск, 2000.

<sup>2</sup> Уголовный кодекс Азербайджанской Республики // Юридическая Россия: федеральный правовой портал (v. 3.2). URL: <http://law.edu.ru>

<sup>3</sup> Уголовный кодекс Республики Армения // Юридическая Россия: федеральный правовой портал (v. 3.2). <http://law.edu.ru>

<sup>4</sup> Уголовный кодекс Республики Беларусь // Юридическая Россия: федеральный правовой портал (v. 3.2). <http://law.edu.ru>

<sup>5</sup> Уголовный кодекс Грузии // Юридическая Россия: федеральный правовой портал (v. 3.2). <http://law.edu.ru>

<sup>6</sup> Уголовный кодекс Кыргызской Республики // Юридическая Россия: федеральный правовой портал (v. 3.2). <http://law.edu.ru>

<sup>7</sup> Уголовный кодекс Республики Таджикистан // Юридическая Россия: федеральный правовой портал (v. 3.2). <http://law.edu.ru>

<sup>8</sup> Уголовный кодекс Туркменистана. [http://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31295286#pos=1918;-165](http://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31295286#pos=1918;-165)



Keltirilgan davlatlar orasida soʻz yuritilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfiligi “Davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari manfaatlariga qarshi korrupsiyaviy va boshqa jinoiy huquqbuzarliklar” bobida joylashgan qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga toʻsqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilangan Qozogʻiston Respublikasi JKning 365-m.da, bizningcha, nisbatan toʻgʻri va aniq ifodalangan<sup>9</sup>.

XXR JKda qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga toʻsqinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanmagan boʻlsada, XXR JKning 403-m.da davlat boshqaruv organlari xodimlarining gʻarazli niyatda yoki oʻz xizmat vazifalarini suiisteʼmol qilish orqali qonun talablariga javob bermaydigan kompaniyalarni tashkil etish toʻgʻrisidagi murojaatlarni qanoatlantirish yoki shunday kompaniyalarni davlat roʻyxatidan oʻtkazganlik uchun jinoiy javobgarligi belgilangan<sup>10</sup>.

Yuqorida qayd etilganidek, aksariyat Yevropa davlatlari jinoyat qonunchiligida belgilangan tadbirkorlik faoliyatiga qarshi jinoyatlar oʻz xususiyatiga koʻra quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga toʻsqinlik qilish (tadbirkorlik faoliyati erkinligi);
- gʻayriqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish.

Yevropa davlatlari, shuningdek Boltiqboʻyi davlatlari – Latviya<sup>11</sup>, Litva<sup>12</sup> va Estoniya<sup>13</sup> jinoyat qonunlarini oʻrganish davomida mansabdor shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga toʻsqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi norma mavjud emasligi aniqlandi.

Yevropa davlatlarida tadbirkorlik faoliyatiga qarshi qaratilgan jinoiy qilmishlarning jinoyat-huquqiy tavsifini tadqiq qilish shuni koʻrsatadiki, ushbu davlatlar jinoyat qonunchiligida noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi norma mavjud.

<sup>9</sup> [https://online.zakon.kz/document/?doc\\_id=31575252#pos=5182;-58](https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575252#pos=5182;-58)

<sup>10</sup> Уголовный кодекс Китайской Народной Республики / под. ред. А. И. Коробеева ; пер. с кит. Д. В. Вичикова. СПб., 2001. –С. 270.

<sup>11</sup> Уголовно-правовые и криминологические аспекты охраны предпринимательской деятельности : монография / А. В. Борбат [и др.]. –М., 2004. – С. 17.

<sup>12</sup> Уголовный кодекс Литовской Республики // Юридическая Россия : федеральный правовой портал (v. 3.2). URL: <http://law.edu.ru> (дата обращения: 30.09.2018).

<sup>13</sup> Пенитенциарный кодекс Эстонии // Инфосила: сайт. <http://infosila.ee/main/1398-zakonodatelstvo-estonii-na-russkom-yazyke.html> (дата обращения: 30.09.2018).